

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA HIKOYALARNI O'QITISH  
METODIKASINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA  
TAKOMILLASHTIRISH**

*Muhabbat Jumaniyozova*

*Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti  
" Boshlang'ich ta'lim " metodikasi kafedrasida dotsenti*

*Ozodova Zulfiya G'ayrat qizi*

*Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinflarda Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hikoyani o'qishga bag'ishlangan darslarda o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, Hikoyani o'qishda mazmun tahlilidan tashqari hikoyani o'qitish ham muhimligi, Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanishi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *hikoya, mazmun, o'qish, tarbiya, savodxonlik, o'quvchi, islohotlar, ta'lim-tarbiya, ertak, e'tibor.*

Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim sohasidagi tub burilishlar aynan har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlod ta'lim tarbiyasi uchunligi hech birimizga sir emas. Shu bilan bir qatorda Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga hikoyalar o'qitish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarni savodxonligini oshirish, o'zini ustida ishlashga o'rgatish kabi bir qancha talablar ham qo'yilmoqda.

Hozir biz yoritib bermoqchi bo'lgan mavzuyimiz boshlang'ich sinf o'quvchilariga hikoyalar o'qitish orqali ularni bilimini mustahkamlashdir.

Hikoya - epik tur janrlaridan biri. Kichik hajmli bu badiiy asar kishi hayotidagi ma'lum bir voqeaning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlaydi, lekin shu voqeaga qadar ro'y bergan yoki undan keyin yuzaga keladigan voqealar haqida batafsil bayon qilmaydi. Hikoyanavisning mohirligi shundaki, u qaynoq hayot

qo'ynidan bir epizodni olib, yashashning muhim, tipik tomonlarini shu ixcham shaklga sig'diradi.[1]

Hikoyadagi ana shu ixchamlik, obrazlar xarakterining murakkab emasligi boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun mos keladi. Kichik yoshdagi bolalar asar qahramonining ruhiy kechinmalarini tahlil qilishga emas, balki o'sha qahramon harakati, portreti, jasorati va nutqiga ko'proq qiziqadilar. Qiziqarli sujet asosiga qurilgan hikoyalar ularning diqqatini tezda o'ziga jalb etadi. Boshlang'ich sinflarda hikoya mazmunini ko'proq izohli o'qish vositasida o'rganiladi. Bunda quyidagi o'qish-o'rganish ishlari amalga oshiriladi:

- ifodali o'qish;
- matnni qayta hikoyalash;
- lug'at ustida ishlash;
- savol-javob vositasida hikoyadagi voqea-hodisalar bilan obrazlar xatti-harakatidagi ichki bog'lanishni aniqlash va boshqalar.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. „Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir“. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hikoyani o'qishga bag'ishlangan darslarda o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limning bilim berish vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar dastlabki bosqichda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha dastlabki tushunchalarga ega bo'lishadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini tarkib toptirish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Ayni paytda, mazkur vazifasining ijrosi jarayonida o'quvchilarning layoqati fanlar kesimi asosida aniqlanadi va ularni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich ta'limning navbatdagi vazifasi o'quvchilarga malaka berishdan iborat. Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan, "malaka-shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar majmuidir". Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining malakasini tarkib toptirish deganda ularning mahoratlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Aynan mana shunday tushunish boshlang'ich ta'limning malaka berish vazifasini mazmunini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'limning yana bir vazifasi o'quvchilarda ko'nikma asoslarini shakllantirishdan iborat. Ko'nikma - bu muayyan xarakatning tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarishdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'nikma asoslarini tarkib toptirish deganda ularda bilim olish va tarbiyalanish jarayonida aniq va maqsadli xarakatlarni tarkib toptirish nazarda tutiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, inson hayotida boshlang'ich ta'lim juda katta va muhim rol o'ynaydi. Buni o'quvchilar dunyoqarashi aynan boshlang'ich sinf davrida rivojlanishidan bilib olish mumkin. Dunyoqarashi keng bo'lgan inson har qanday sohada o'z qobiliyatlarini namoyon qila oladi va atrofidagi insonlarga ta'sir o'tkaza oladi. Shaxs ma'naviy fazilatlarining qaysidir miqdori tug'ma bo'lsa-da, ular, asosan, ta'lim-tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, ta'lim jarayoni jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan, yoshlarimizning mentaliteti va ma'naviy qiyosafini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik ko'nikmalar boshlang'ich sinfda o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarda shakllantiriladi. Jumladan, misollar yechish, masalalarga to'g'ri yondashish, turli xildagi matnlar, masalan, hikoyalar, she'rlarni o'qish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi. Mazkur jarayonlarda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. Bu o'rinda uning o'quvchilarni yo'naltirishi, bolalarga mos metodlardan foydalanishi, ularning qiziqishlarini bilgan holda, darslikda berilgan topshiriqlarni yechishga, ularni tahlil qilishg o'rgatishi lozimdir. Boshlang'ich ta'limda hajm jihatidan ixcham bo'lgan badiiy asar janrlaridan hikoya, ertak, masal, she'r, rivoyat, asotirlar, dostonan parcha, xalq og'zaki ijodi namunalari va ilmiy-ommabop maqolalar o'qitiladi.

Turli janrdagi asarlar syujeti, uslubiy bo'yog'i, til vositalarining o'ziga xosligi jihatidan o'quvchilarga har xil ta'sir ko'rsatadi. O'qish darsida o'qituvchi o'rganilayotgan asarning janr xususiyatlarini inobatga olib, unga mos bo'lgan an'anaviy yoki noan'anaviy pedagogik usullardan foydalanishi zarur.

Hikoyani o'qishda mazmun tahlilidan tashqari hikoyani o'qitish ham muhimdir. Shuning uchun hikoya matni o'qilgach uning g'oyaviy mazmunini ochishga daxldor bo'lgan savollar topib yoki darslik savollari va topshirig'idan foydalangan holda o'quvchilarni gapirishga, hikoya voqealariga o'zlarining mustaqil munosabatini bildirishga obrazlarni bir-biri bilan taqqoslash va ularning xulq-atvoridagi yaxshi yoki yomon xislatlarni ajrata olsihga undashi shart va zarurdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.A'zam Xoliqov „Pedagogik mahorat” „Tafakkur-Bo‘stoni” Toshkent-2011
- 2.Siddiqova Sh. „Yosh avlod ma’naviy kamolotida badiiy adabiyotning o‘rni” „Izlanish samaralari” 2019-y.
- 3.K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi.T. Noshir.2009.
- 4.Boshlang'ich sinflar uchun yangi tahrirdagi DTS va o`quv dasturi. - T.: Boshlang`ich ta`lim. 2005. 5-soni.
- 5.WWW.TDPU.UZ